

O‘zbekistonda keng tarqalgan dorivor o‘simliklar

Andijon davlat Pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 202-guruh talabalari
Inomjonova Muhtasar Muhiddin qizi
Nabiyeva Dilzoda Abduvohidjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ko‘p o‘stiriladigan va keng qo‘llanilishga ega bo‘lgan turli xil o‘simlik turlari, ularning ahamiyati haqida ma'lumot keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о различных видах растений, которые широко культивируются и широко используются в Узбекистане, и их значении.

Abstract: This article provides information about various types of plants that are widely cultivated and widely used in Uzbekistan, and their importance.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simliklar, aromatik, farmasevtika, biologik faol moddalar, tibbiyot, vitaminlar, efir moylari, yalpiz, shirinmiya, aloe, isiriq, na'matak, jag‘ jag‘.

Ключевые слова: лекарственные растения, ароматические вещества, фармацевтические препараты, биологически активные вещества, лекарства, витамины, эфирные масла, мята перечная, солодка, алоэ, ладан, наматак, челюсть челюстная.

Key words: medicinal plants, aromatic, pharmaceuticals, biologically active substances, medicine, vitamins, essential oils, peppermint, licorice, aloe, incense, namatak, jaw jaw.

O‘zbekistonda asrlar davomida xalq tabobatida qo‘llanib kelingan bir qancha keng tarqalgan dorivor o‘simliklar mavjud. Markaziy Osiyoning qo‘shni mintaqalari bilan taqqoslaganda, O‘zbekistonning tog‘laridagi maydon birligiga nisbat bo‘yicha o‘simliklar soni bir necha barobar ko‘p. Mamlakatning boy o‘simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o‘simliklar mavjud, ular orasida dorivor o‘simliklar ham bor. Bunday o‘tlar ekologik toza bo‘lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlatiladi.

Dorivor o‘simliklar odam va hayvon organizmlariga ta'sir qiluvchi biologik faol moddalarni saqlovchi, tibbiyot maqsadida foydalaniladigan o‘simliklar

hisoblanadi. Ularda turli biologik faol moddalar (BFM) to‘planadi: (alkaloidlar, glikozidlar, vitaminlar, achchiq moddalar, oshlovchi moddalar, polisaxaridlar, flavonoidlar, efir moylari va b.). Odatda dorivor o‘simliklarni quyidagi guruhlarga bo‘linadi: Tinchlantiruvchi, uyqu keltiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, yaralarni tuzatuvchi, qon to‘xtatuvchi, safro haydovchi, yumshatuvchi va boshqalar. Inson va hayvonlar organizmida ro‘y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o‘simliklardan tayyorlanayotgan dorilar muhim o‘rinda turadi.[1]

O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40-47% o‘simlik xomashyolaridan olinadi. O‘simliklar murakkab tuzilishiga ega bo‘lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo‘lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o‘simliklarning quritilgan o‘ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po‘stlog‘i, bargi, guli, g‘unchasi, mevasi (urug‘ii), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi. Dorivor o‘simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta‘sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar, 2) farmakologik ko‘rsatkichlariga qarab tinchlantiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta‘sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo‘zg‘atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar.[2]

Yalpiz — labguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, dorivor va efirmoyli o‘simlik. Shimoliy yarim sharning iliq iqlimli mintaqalarida 20-25 turi tarqalgan. O‘zbekistonda 4 turi: suv yalpizi, Osiyo yalpizi, taxir (achchiq) yalpizi va jingalak yalpizi yovvoyi holda o‘sad. Poyasi tik shoxlangan, bo‘yi 25-100 sm gacha, barglari qarama-qarshi joylashgan. May oktabrda gullaydi. Yalpiz yorug‘sevar, namsevar o‘simlik. Barglarida 2,5- 3 %, gullarida 4-6%, poyasida 0,3 % mentol (validolning tarkibiy qismi)ga boy bo‘lgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar bor. Tibbiyotda yalpiz bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) va damlamasidan ko‘ngil ayniganda hamda o‘t haydovchi vosita sifatida foydalaniladi. O‘zbekistonniig barcha viloyatlarida nam yerlarda, ariq va daryo bo‘ylarida o‘sadi. Bollalar uchun yalpizning foydaligi yalpiz tinchlantiruvchi ta‘sirga ega, bolalarda qusish va ko‘ngil

aynish bilan yordam beradi. Kolikadan xalos bo‘lish karmplarini kamaytirish uchun chaqaloqlarga yalpiz choylari beriladi. Tinchlantiruvchi xususiyatlari bolalarda qo‘llaniladi tashvishli va yomon uyqu. Ko‘pincha, bu bir yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar, chunki ular asab tizimini hali to‘liq shakillantirmagan. Bunday hollarda yalpiz choyi ham tayyorlanadi. [3]

Isiriq o‘tini kuydirib, biroz hidlansa bosh og‘rig‘i yo‘qoladi; Isiriq urug‘i qaynatmasi nafas olishi qiyinlashganda, nafas qisishida zig‘ir urug‘i bilan bilan araashtirib ichilsa yuqoridagi dardlarga davo bo‘ladi; Isiriqning shonalash davrida olinadigan o‘ti va urug‘lari davolashda ancha samarali hisoblanadi; Isiriqni tinchlantiruvchi vosita sifatida ham qo‘llash mumkin. Bu xususiyati uyqusizlikda ajoyib foyda beradi; O‘simlikning shirasi – katarakda ancha samara beradi (Qaynatmasi bilan yuz yuviladi); Uy-joylarni dezinfeksiya qilish maqsadida tutatib qo‘yish mumkin; Isiriqning sut shirasi tibbiy paxtaga shimdirilib, qichimadan qiynalgan joylarga 10 kun davomida davomida surtilsa, qichimani tuzatadi; Yurak faoliyatini yaxshilash maqsadida isiriq urug‘i, sedana, kamfora, murch, petrushka, qora zira, zafaron teng miqdorda olinib, aralashtiriladi. Hamda asal yoki shakar qo‘shilib kuniga bir mahal ichiladi; Ichdam bo‘lganda isiriqqa, petrushka urug‘ini hamda yalpiz, zanjabil kabilarni aralashtirilib ichilsa, shifo bo‘ladi; Isiriq tish og‘rig‘i, terlatuvchi, grippni oldini oluvchi, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini davolovchi xususiyatlari ham mavjud! [4]

Aloe - Piyozguldoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 4 m gacha yetadigan doim yashil daraxtsimon yoki o‘t-o‘simlik. Barglari qalin, sershira, yumshoq, qilichsimon, yuqori tomoni botiq, pastki tomoni do‘ng bo‘lib, chiqqan, qirrasini tikanlar bilan qoplangan, uzunligi 60-65 sm, qalinligi 12-15 mm ga yetadi. Aloy bargi qadimdan xalq tabobatida ishlatib kelingan. Qurilmagan bargi va uning shirasi me‘da va o‘n ikki barmoq ichak yaralarini davolashda qo‘llaniladi. O‘pka silini davolashda aloy bargi shirasini asal va cho‘chqa (charvisi) yog‘i bilan aralashtirib pishiriladi va bemorga iste‘mol qilishga beriladi. Aloy bargini o‘rtasidan uzunasiga kesib (pichoq, shisha va boshqa narsalar bilan) tananing kesilgan joyiga, shirasini yaralarga, ular yiringlab ketmasligi va tez bitishi uchun qo‘yiladi. Shuningdek, aloy bargi milk yallig‘laganda, shishib og‘riganda qo‘llaniladi.

May na‘matagi - Na‘matak turlari ra‘noguldoshlar Rosaceae oilasiga mansub, bo‘yi 1,5-3 m ga yetadigan tikanli buta. Na‘matak turlarining mevasi turli vitaminlar saqlovchi polivitaminli mevalarga kiradi. Yuqori vitaminli turlari (Begger

na'mataklari va Fedchenko na'matagi) avitaminoz kasalliklarini davolash va ularning oldini olish uchun qo'llaniladi. Urug'idan olingan moyi va mevasining yumshoq qismidan tayyorlangan moyli ekstrakti karatolin kuyganni, trofik yaralarni, ekzema, teri kasalliklarini, rentgen nuridan kuygan joylarni, yarali kolit va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.[5]

Jag'-jag' o'ti tarkibida gissopin ramno- glyukozidi, burs kislotasi, taninlar, fumad, olma va vino kislotalari, xolin va atsetilxolin, tiramin, inozit, askorbin kislotasi va saponinlar mavjud. Urug'larida yog'li moylar (28% gacha) va oz miqdordagi allilxantal yog'i mavjud. Jag'-jag' o'simligi qaynatmasi ginekologik amaliyotda damlama va ekstrakt shaklida tug'ruqdan keyingi qon to'xtatuvchi vosita sifatida, shuningdek, tug'ruq paytida bachadon mushaklarining qisqarishini kuchaytirish uchun ishlatiladi. Tez-tez qon tupirish va qon ketishi bilan kechgan o'pka silini davolashda jag'-jag' o'simligi qaynatmasining samarali foydasi aniqlangan.[6]

Shirinmiya dorivor o'simlik sifatida juda qadim zamonlardan ma'lum. O'rta asrlarning mashhur olim va tabibi Abu Ali Ibn Sini o'zining davolash amaliyotida shirinmiya yerostki qismlaridan juda keng miqyosida foydalangan. Jumladan oshqozon ichak yaralarini, o'pka va nafas yo'llari kasalliklarini davolashda dorivor vosita sifatida ishlatilgan. Zamonaviy tabobatda ham bu o'simlikning o'rni beqiyos bo'lib, farmasevtika sanoati korxonalarida qayta ishlanib turli xil dori vositalari ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga ko'pgina dorivor yig'malarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.[7]

Xulosa qilib aytganda dorivor o'simliklar sog'likni saqlash va sog'lomlashtirishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekistonda keng tarqalgan dorivor o'simliklar manbalaridan olingan birikmalar tabobatda, farmasevtikada keng qo'llaniladi.

Research Science and
Innovation House

Foydanilgan adabiyotlar:

1. www.google.com Dorivor o‘simliklar ularning tabiatda va inson hayotidagi roli. cyberleninka.ru
2. O‘zbekistonda keng tarqalgan foydali o‘simliklar. Tulyaganova M. Yuldashev A.S. Toshkent-2011
3. Xolmatov X.X, Odilov T. O‘zbekistonning dorivor o‘simliklari. Toshkent: fan, 1991.
4. R.A. Alimova, M.T. Sagdiyev, B.A. Adilov, M.S. Abdullayev - Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent: Ibn Sino 1998.
5. M.A. Jo‘rayeva Dorivor o‘simliklar atlasini Toshkent nashr-2019.
6. O.K. Hojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamrayeva, D.A. Imomova, A.N. Xo‘janov O‘zbekiston dorivor o‘simliklar atlasini SamDU nashriyoti 2021.
7. <https://agro-olam.uz/dorivor-shirinmiya-haqida/>

Research Science and Innovation House